

TA'LIM TIZIMIDA YURIDIK BAZANI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH

Madiyeva Charos Dovutovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti Katta o'qituvchisi

Abdulhayeva Zilola Bahromjon qizi

Toshkent Amaliy fanlar unversiteti

Tarix va filologiya fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

Аннотация. В данном исследовании анализируются вопросы достижения устойчивого развития через совершенствование нормативно-правовых документов в системе образования. Рассмотрены пути достижения научного, экономического и социального устойчивого развития путем укрепления нормативно-правовой базы в сфере образования, ее актуализации и систематизации в соответствии с современными требованиями. В нем также рассматриваются механизмы повышения качества образования, развития человеческого капитала и правового обеспечения инновационных подходов.

Ключевые слова: система образования, правовая база, устойчивое развитие, правовые реформы, нормативные документы, человеческий капитал, инновации, правовая система, образовательная политика.

Annotation. This study analyzes the issues of achieving sustainable development through the improvement of legal and regulatory documents in the education system. The ways of achieving scientific, economic and social sustainable development by strengthening the legal framework in the field of education, updating and systematizing it in accordance with modern requirements are considered. It also covers the mechanisms for improving the quality of education, human capital development and legal support for innovative approaches.

Keywords: education system, legal framework, sustainable development, legal reforms, regulatory documents, human capital, innovation, legal system, education policy.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta'lif tizimi nafaqat bilim berish vositasi, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlashda sifatli va izchil faoliyat yurituvchi ta'lif tizimi hal qiluvchi rol o'yaydi. Bu tizimning samaradorligi esa, eng avvalo, uning huquqiy asoslariga, ya'ni yuridik bazasining mustahkamligi va yangilanishiga bog'liq. Shu sababli, ta'lif sohasidagi yuridik-me'yoriy hujjatlarni zamon talablari asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

So‘nggi yillarda mamlakatda o‘quv-pedagogik jarayonga innovatsion ilg‘or va xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va professor-o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish, shuningdek, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni nazarda tutadigan yuridik ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, milliy yuridik ta’limning samaradorligi nisbatan pastligicha qolmoqda, bu yuqori malakali mutaxassis-huquqshunoslarni tayyorlash va mamlakatda yuridik fanni rivojlantirishga to‘sinqilik qilayotgan qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligi bilan izohlanadi.

Huquq sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliy jihatdan joriy etish, o‘qitishning ilg‘or uslublaridan keng foydalanish, shuningdek, zamonaviy talablarni inobatga olgan holda ta’lim standartlarini modernizatsiyalash va o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqishga yetarli e’tibor berilmayapti, bu esa yuridik ta’lim sifati va ilmiy salohiyatning pasayishiga olib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQT METODOLOGIYASI

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyatga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sinqilik qilmoqda.

Yuridik baza – bu davlat siyosatini amalga oshirishda huquqiy kafolat beruvchi mexanizm bo‘lib, u ta’lim tizimining har bir bosqichida barqarorlikni ta’minlaydi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bu yo‘nalishdagi asosiy hujjatlar sirasiga kiradi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, zamonaviy ta’limning muvaffaqiyatli ishlashi uchun yuridik hujjatlarning tizimli, aniqligi va amaliyatga mosligi muhim.

Barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi ta’lim tizimi uchun faqatgina an’anaviy huquqiy yondashuvlar yetarli emas. STEAM-ta’lim, raqamli platformalar, masofaviy o‘qitish kabi texnologik yutuqlarni qonunchilik darajasida muvofiqlashtirish zarur. Bu borada O‘zbekiston Prezidentining 2022-yilgi farmonlari ta’limning innovatsion rivojlanishini yuridik jihatdan mustahkamlashga qaratilgan.

Dunyo miqyosida oliy ta’lim muassasalarining avtonomiysi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilayotgani aniqlangan . O‘zbekistonda ham universitetlar faoliyatini yuridik

jihatdan erkinlashtirish bo'yicha qadamlar tashlanmoqda, biroq bu borada huquqiy mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG-4) ko'ra, 2030-yilgacha sifatli, inklyuziv va adolatli ta'limni ta'minlash global vazifa sifatida belgilanmoqda. Ta'lim tizimida gender tengligi, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash yuridik jihatdan mustahkamlanishi kerak.[5; 456,460-b]

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning huquqiy asoslarini yaratish va ularni mukammallashtirish orqali ta'lim sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Ta'limga oid qonunlar, prezident farmonlari, qarorlar, vazirlik buyruqlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bu jarayonda muhim o'rinn egallaydi.

Yuridik baza quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirilishi lozim:

1. Yagona va tizimli yondashuv – turli darajadagi hujjatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish;
2. Innovatsion rivojlanishga yo'naltirish – raqamli ta'lim, masofaviy o'qitish, STEAM texnologiyalari kabi zamонавиy yondashuvlar uchun huquqiy imkoniyatlar yaratish;
3. Akademik erkinlik va muassasalarining avtonomiysi – oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish orqali ularning tashabbuskorligini rag'batlantirish;
4. Teng imkoniyatlar va inkluzivlik – ta'limning barcha qatlamlari uchun ochiqligi va teng imkoniyatlar yaratilishini yuridik jihatdan mustahkamlash;
5. Monitoring va nazorat mexanizmlari – qabul qilingan hujjatlarning amaliyotdagи natijalarini tahlil qilish va takomillashtirib borish tizimini ishlab chiqish.

Ta'lim tizimidagi barqaror rivojlanish faqatgina moliyaviy va tashkiliy choralar bilangina emas, balki aniq huquqiy asoslangan siyosat orqali erishiladi. Bu esa, yurtimiz taraqqiyoti va global raqobatbardoshlikning oshishida muhim omil hisoblanadi.[6; 321,328-b]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi strategik soha hisoblanadi. Ta'lim sifati va uning barqarorligi ko'p jihatdan yuridik-me'yoriy asoslarning puxtaligiga bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy asoslari yetuk bo'lgan ta'lim tizimlari raqobatbardosh inson kapitalini shakllantiradi. Shu bois, ta'lim sohasida yuridik bazani zamon talablari asosida takomillashtirish orqali barqaror taraqqiyotga erishish imkoniyati ortadi. Ta'lim tizimining yuridik bazasini takomillashtirish barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Har bir normativ-huquqiy hujjat hayotga yaqin, amaliyotga mos va kelajakka yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu yo'l bilan ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy tenglikni

ta'minlash va zamonaviy global chaqiriqlarga javob bera oladigan barqaror tizim yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari" to'g'risidagi Farmoni, PF-60, 2022 yil 28 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-3775-sون, 2018 yil 6 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.
4. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, yangi tahriri – 2020 yil.
5. Abdullaeva, G. Sh. Ta'lim tizimida huquqiy islohotlar va ularning samaradorligi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. 456-460
6. Tohirov, S. M. Huquqiy ta'lim va tarbiya: nazariya va amaliyat. – Toshkent: "Adolat", 2019. 321-328